



AYRIM FRAZEMALARNING NUTQIY VA LISONIY TADQIQI (BADIY ASAR MISOLIDA)

O'rolova Mashhura Hamid qizi¹, Ubaydullayeva Shohista
Hidoyatillo qizi²

¹ Termiz davlat pedagogika instituti, talaba

² Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti, talaba

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7180704>

ARTICLE INFO

Received: 01st October 2022

Accepted: 05th October 2022

Online: 10th October 2022

KEY WORDS

qo'shma bo'lak birligi, so'z
birikmasi, frazeologik birlik,
ibora, mazmun rejasi, ifoda
rejasi, kontekst, lingvistik birlik,
leksik birlik.

ABSTRACT

Bugungi kunda o'zbek tilshunosligida frazeologik birliklar soni ortib borayotganini inobatga olib, frazeologik lug'atni kengaytirish muammosi mavjud. Frazeologizmlarning nutqimizdagi o'rni beqiyos. Fikrlarimizni yanada ifodali, samaraliroq qilish so'zga teng bo'lgan iborani to'g'ri qo'llashimizni anglatadi. So'z birikmalaridan to'g'ri foydalanish tinglovchiga etkazilgan ma'lumotni tushunish koeffitsientini oshiradi.

Tarixga bir nazar tashlasak, Frazeologiya tilshunoslikning mustaqil tarmog'i sifatida XX asrning 40-yillarida rus tilshunosligida paydo bo'lgani barchamizga ma'lum. Uning dastlabki shakllanishiga rus olimlari A. A. Potebnya, I. I. Sreznevskiy, A. A. Shaxmatov asarlarida asos solingan. O'zbek tilshunosligida frazeologiya sohasidagi tadqiqotlar o'tgan asrning 50-yillaridan boshlangan. Bugungi kunda Sh. Rahmatullayev, M.Sodiqova kabi tilshunoslarimizning farzeologik lug'atlari mavjud bo'lib, unda A. Qodiriy, A. Qahhor, H. Olimjon, Oydin, S. Ahmad asarlarining frazeologik tarkibi tadqiq etilgan. Ammo o'zbek tili boy til ekan, frazeologiya bo'yicha bu tadqiqotlar kamlik qiladi. Frazeologizmlarning nutqimizdagi o'rni beqiyos. Fikrimizni ifodalibroq, ta'sirliroq bo'lishi ma'nosi bir so'zga teng bo'ladigan iborani to'g'ri qo'llay olishimiz bilan bog'liq. Iboralardan o'z o'rnida foydalanish tinglovchiga uzatilayotgan axborotni tushunish koeffitsientini oshiradi. Frazema

til qurilishining lug'at bosqichiga mansub ikkinchi lisoniy birlik bo'lib, bittadan ortiq leksemaning o'zaro semantik-sintaktik birlashuvi bilan tarkib topgan bo'ladi, shunga ko'ra tuzma segment birlik deyiladi. Adabiyotlarda ushbu til birligi frazeologizm, frazeologik birlik kabi terminlar bilan ataladi. Tilshunos Sh.Rahmatullayev bu termini leksema, morfema atamalariga monand tarzda frazema deb atashni ma'qul ko'radi. Nutqda voqelanganda esa yana boshqa nom bilan atashni ilgari suradi: Frazema lisoniy birlik sifatida qismga teng bo'ladi, ma'lum grammatik belgi-xususiyat qo'shilgandan keyingina butunga aylanadi va nutqda ishlatiladi, keyingi holatida frazema nutqiy birlikka teng bo'ladi, frazemashakl deyiladi. Frazeologizmni atashda turli fikrlar bo'lsada, uni anglatadigan ma'nosi xususida yakdil fikrlar mavjud. Frazema ko'chma ma'noli turg'un konstruksiyadir. Frazema ham leksema kabi lug'aviy birlik sanaladi, ammo o'zining ifoda va mazmun planlaridagi qator belgilar



bilan leksemadan farq qiladi. Frazemaning ifoda plani uning tovush tomoni, leksik tarkibi, birikmaga yoki gapga teng kostruksiya ekanligi nazarda tutiladi. Masalan, ko'ngli qolmoq (birikmaga teng); Bardoshini tegirmonga solib tuymoq (gapga teng). Frazemaning mazmun plani uning nimanidir nomlashi, ifodalashidir. Masalan, "o'takasi yorilmoq" frazemasining mazmun planida "qo'rqmoq" ma'nosi bor. O'zbek tilshunosligida mavjud frazemalarning barchasi hali o'z ifodasini to'liq topmagan. Xalqimiz tilida va badiiy asarlarda shunday frazemalar borki, ular amaldagi frazeologik lug'atlarda aks etmagan. Ushbu muammoni imkon qadar bartaraf etish maqsadida Xurshid Do'stmuhammadning "Oromkursi" qissasidan olingan frazeologik birliklarni real misollar yordamida ochishga harakat qilamiz.

Nuqul iljayar va ichi toshib ketayotganini sezdirmaslik uchun darhol lab-lunjini yig'ishtirishga urinar edi. Yuqorida keltirilgan kontekstda "ichi toshib ketmoq" va "lab-lunjini yig'ishtirmoq" frazemalari qo'llangan. Ichi toshdi—1. Biror narsani shoshib bajarish davomida ruhan xovliqib ketmoq; 2. Sabri tugab ruhan betoqat bo'lmoq. "Lab-lunjini yig'ishtirmoq" frazemasining mazmun planida xursan bo'lganligini bildirmaslikka urinishi ifodalangan;

He yo'q-be yo'q domla Niyozovichdan ko'ngli qoldi, xuddi ovliqda pisib, shuni kutib turganday Nazirov domla zudlik bilan uni huzuriga chaqirtirdi. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'atida ko'ngli qolmoq iborasi quyidagicha tavsiflanadi: ko'ngli qolmoq—birikmaga teng ibora bo'lib, sinonimlari: hafsalasi pir bo'lmoq, qo'lini yuvib qo'ltig'iga urmoq;

Lekin Ko'klam "oliy ma'lumotli bo'ldim!" deb yarimta do'ppisini osmonga otib, kelgan yurtiga to'zib ketayotgan mishqi saboqdoshlari qatori qishloqqa qaytib borishni o'ziga ep ko'rmadi—yana uch-to'rt yil sabr qilsa, u—olim!["Oromkursi" 120] Yuqoridagi keltirilgan gapda ikkita frazema aks etgan bo'lib ular quyidagicha ma'no ifodalaydi: do'ppisini osmonga otmoq juda xursand bo'lmoq, quvonmoq ; ep ko'rmaslik— noloyiq, yarashmaydigan ish deb bilmoq.

Yigirma yillar muqaddam rahmatli bo'lib ketgan otasining marhamatu muruvbatini unutmagan domlalar hali yo'q emas.]Xalqimiz tilida rahmatli bo'lmoq iborasi ancha ommalashgan bo'lsada, hali frazeologik lug'atda aks etmagan. Uning mazmun planida o'lmoq ma'nosi mavjud; "Hay,birodarlar, it yotish-mirza turish bizga to'g'ri kemaydi", deb ijarama-ijara sang'igan. Kontekstdagi it yotish-mirza turish frazasi tartibsizlik ma'nosida ifodalangan, ammo ushbu fraza frazeologik lug'atda aks etmagan;

Og'zini to'ldirib domlasiga tashakkurlar yog'dirmoqqa lab juftlaganida botindan kelgan unsiz sado uni niyatidan qaytardi.Keltirilgan gapda og'zini to'ldirmoq va lab juftlamoq frazeologik birliklari mavjud. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'atida og'zini to'ldirib gapirmoq iborasining sinonimi—og'zini ko'pirtirmoq ko'p va maqtanib gapirmoq ma'nosi bilan bur xil ma'no ifodalashi keltirilgan; lab juftlamoq—og'iz juftlamoq frazemalari o'zaro sinonim bo'lib, ularning mazmun planida gapirishga hozirlanmoq ma'nosi bor;

Ko'klam bekaning betamizlarcha nazar-pisand etmay vaysashini hayol aralash eshitdi va ensasi qotib "chiqib ketaqolsa-chi!" dedi g'ijinib.O'zbek tilining izohli



frazeologik lug'atida ensasi qotmoq—ranjib, noxush bo'lmoq ma'nosi bilan ifodalangan;

Bir ko'ngli "Savlat to'kib o'tirish qochmas, lekin oromkursi zoti yurak bag'ringdan ursa nima qilish kerak, opoy?" deb so'ramoqchi edi. ["Oromkursi" 123] Ushbu frazema o'zbek tilining izohli frazeologik lug'atida quyidagicha tavsiflanadi: Yuragidan urmoq—o'ziga shaydo qilib olmoq (salbiy), sinonimi jigaridan urmoq;

Majhul ahvolda garangsib qo'lidagi yupqa, jomadonnusxa portfelini suol oyog'iga suyab turib "Bechora" deb qo'ydi shivirlab, so'ng qad roshladida, xonaga qaytadan ko'z yugurtirdi. ["Oromkursi" 123]. Kontekstda qatnashgan ko'z yugurtirmoq—ko'zdan o'tkazmoq, ko'zdan kechirmoq frazemalari bilan o'zaro sinonimiyani hosil qiladi ;

"Juda alomat-ku, —og'zining tanobi qochib ko'ngli sust ketdi Ko'klamning. Bu gapda og'zining tanobi qochmoq hamda ko'ngli sust ketmoq iboralari mavjud. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'atida og'zining tanobi qochmoq behad sevinmoq, xursandchiligi tufayli lab-lunjini yig'ishtib ololmaslik mazmuniy ma'nosini ifodalaydi. Ammo ko'ngli sust ketmoq iborasi lug'atda aks etmagan. Gapdagi mazmuniy plani bir narsani qattiq istamoq ma'nosidir;

Va xonumini ikki o't orasida kuyib kul bo'lavergach jonidan to'ydi—hamma g'ishavani bir yoqlik qildi-qo'ydi. Mazkur gapdagi ikki o'rtada kuyib kul bo'lmoq iborasi tortishayotgan ikki taraf o'rtasida qolish vaziyatini ochish uchun ishlatilgan. Jonidan to'ymoq—1. Yashashni istamaslik; 2. Ortiq toqat qila olmasligi tufayli o'limga ham rozi bo'lmoq;

Shuncha yil sabr-bardoshini tegirmonga solib tuygan xudovandi karim nihoyat ko'ngli iyib o'g'il ato etgani sharafiga yurtga dasturxon yozgan otasi el-yurt oldida

"bizning o'g'il kam deganda shaharga hokim bo'ladi!" deb kalonso'z aytgan joyi bor ekan. Kontekstda qatnashgan sabr-bardoshini tegirmonga solib tuymoq iborasining mazmun planida sabrini sinamoq ma'nosi turadi. Bu ibora lug'atda aks etmagan;

Hozirgi mehr-oqibatlardagi sovuqchilik, inkorni-inkorlar xolva bo'lib qoladi, Ko'klamali janoblari!...Xolva bo'lib qolmoq iborasi hech gap bo'lmay qoladi ma'nosida ishlatiladi;

Bugun biror ishni qoyillatib qo'ymagan bo'lsada, azbaroyi bosim hayajonlardan toliqdi, ko'zi ilindi.. ["Oromkursi" 133]. Ko'zi ilindi- mizg'imoq, birrov uxlamoq ma'nosini ifodalab kelgan;

Man-man degan davangirlarning burnidan ip o'tkazib istagan nag'masiga o'ynatgan , ne-ne oqil-u donishlarning insoniylik martabasini bir pul qilgan...["Oromkursi" 134] Burnidan ip o'tkazmoq— bo'sh-bayovligidan foydalanib hukmini o'tkazmoq ma'nosini ifodalagan. Nag'masiga o'ynatmoq—nog'orasiga o'ynatmoq frazemasini bilan sinonimlikni hosil qiladi. Nog'orasiga o'ynatmoq- o'z izmi yo'l-yo'rig'i bilan ish ko'rmoq ma'nosida qollanadi;

"Shuncha o'qiganing kammidi!" deb chakak qoqdi aya.]. Ushbu frazema gapirmoq (salbiy) ma'nosini ifodalash uchun qo'llangan bo'lib, frazeologik lug'atda aks etmagan;

Ikkala erkak qo'lida tutgan patnisdagi anvoyi noz-ne'matlarni ko'rib beixtiyor ko'zi o'ynab ketdi. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'atida ko'zi o'ynadi—ko'z-ko'z qilgani tufayli havasi keldi mazmuniy planida qo'llanganl;

—Ko'k parda qani?- dedi u tomdan tarasha tushganday o'dag'aylab. Tomdan tarasha tushganday—qo'qqisdan, kutilmagan holda



va qo'pol tarzda ma'nosini ifodalaydigan frazema.

Xurshid Do'stmuhammadning "Oromkursi" qissasida frazeologik birliklar ko'p, biz esa ba'zilariga to'xtaldik. Bugungi kunda o'zbek tilshunosligida frazeologik birliklarning kun sayin ko'payayotganini inobatga olgan holda, frazeologik lug'atni kengaytirish muammosi mavjud. Bu muammoni esa ko'proq izlanishlar orqali

bartaraf etish mumkin. Xalqimiz tilida xalqona ibora bo'lishga ulgurgan, ammo lug'atda aks etmagan frazemashakllarni topish va izohlash lozim. Birgina "Oromkursi" qissasida yuzdan ortiq iboralar qatnashgan bo'lib, ularning ko'pi ommalashgan, ba'zilari esa ommalashish arafasida. Bu esa yozuvchining mahorat egasi ekanligidan dalolatdir.

References:

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Unversitet. 2006
2. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Talqin. 2005
3. Xurshid Do'stmuhammad. Oromkursi. Sharq.2011
4. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. O'qituvchi. 1978